

**BUDJET TASHKILOTLARIDA SMETA TUZISH  
TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Iskandarov Amirbek Otabekovich***  
*O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada byudjet muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish, byudjet mablag'lari samardorligini ta'minlashda, hozirgi kunda moliyalashtirishdagi afzalliklari va kamchiliklari, milliy va jahon amaliyotida, mavjud muammolar atroflicha o'rganib chiqilgan. Davlat byudjeti mablag'larini maqsadli sarflash hamda byudjet muassalarini moliyaviy ta'minlash bo'yicha olib borilgan o'rganishlar natijasida ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Davlat byudjeti, byudjet tashkiloti, dasturiy byudjetlashtirish, natijaga yo'naltirilgan byudjet, xarajatlar smetasi, yakka smeta, rivojlantirish jamg'armasi.

Mamlakat byudjetida markazlashtirilayotgan mablag'lar davlat hukumati organlari va hududiy o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, ular hukumat va hududiy hokimiyat organlari tomonidan tegishli funksiyalar va vazifalarning bajarilishi ta'minlaydi. Davlat byudjetining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Zamonaviy byudjetni barpo etish mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan juda keskin o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida sodir bo'lib, ular o'z navbatida, byudjetning oldida turgan birinchi darajali vazifalarni ham aniqlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miryiyoyev ta'kidlaganlaridek, "O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon pandemiya hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2024-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 5,3 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 5 foizga o'sishi, qishloq xo'jaligi 3,7 foizga, 2023 yilda 450 trln so'mlik bozor xizmatlari ko'rsatilib, 2022-yilga nisbatan 13 foizga o'sishi kutilmoqda."<sup>1</sup>

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi. O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2022-yildagi 12,3 foizdan 2023 yilda 9,0 foiz atrofigacha tushishi kutilmoqda. 2024-yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, 2022-yildan yuridik shaxslar uchun sezilarli o'zgarish mol-mulk solig'ida aks ettirildi. Buning asosiy negizi mol-mulk solig'lari baholash tartibi o'zgarishi, o'zarganda ham juda sezilarli darajada o'zgargani, bu ko'plab tadbirkorlarning yil oxiridagi natijasi salbiy holga tushishi ham mumkinligi kutilmoqda<sup>2</sup>.


<sup>1</sup> 2024-2026 Byudjetnoma

<sup>2</sup> 2024-2026 Byudjetnoma

Madomiki, respublikamizda davlat bosh islo hatchchiligi hamda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash eng asosiy vazifalardan deb belgilangan ekan, o‘z navbatida iqtisodiyotni boshqarishning ta’sirchan dastagi hisoblangan davlat byudjeti mablag‘lari doimo aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunda, albatta, byudjet-soliq siyosatni ishlab chiqish va to‘g‘ri yuritish, byudjet mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanish talab etiladi. Chunki, byudjetda ko‘zda tutilgan tadbirlar va dasturlarni aniq va o‘z vaqtida moliyalashtirilishi ayni paytda davlat dasturlarining ham pirovard natijada to‘liq bajarilishini ta’minlaydi.

Budjet tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan budgetdan mablag‘ bilan ta’minalash normativlari asosida smeta va shtatlar jadvalini mustaqil ravishda ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Smetsa - notijorat faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotning maqsadga yo‘naltirilganligi nuqtai nazaridan pul mablag‘larining tashkil topishi va sarflanishi to‘g‘risidagi axborotni o‘zida mujassamlashtiruvchi moliyaviy



**2-rasm. Xarajatlar smetasining mohiyati<sup>3</sup>**

rejasidir. Ish haqini to‘lashga va joriy faoliyatga xarajatlar budgetdan ajratilganligini, shuningdek mablag‘larning maqsadliligi va choraklar bo‘yicha taqsimoti hajmini belgilovchi hujjatdir. Xarajatlar smetasi mohiyatini quyidagi rasm ma’lumotlaridan ham kengroq tushunish mumkin.

Ro‘yxatdan o‘tkazish mazkur budjet tashkiloti xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash), budjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kundan kechiktirmay moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Smetalar O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasiga muvofiq xarajatlarning to‘liq yoyilmasi ilova qilingan holda xarajatlarning to‘rt guruhi bo‘yicha tuziladi va hisobot berish maqsadida foydalaniladi.

<sup>3</sup> T.Malikov va N. Haydarovlarning “Byudjet daromadlari va xarajatlari” (T.: “Iqtisod-moliya”, 2017 y.) o‘quv qo‘lanmasi asosida mustaqil tayyorlandi.

Budjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan o‘zgartirishlar albatta Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari bilan kelishiladi.

Xarajatlarning I va II guruuhlariga kiritilgan budjet tashkilotlari xarajatlari birinchi navbatda moliyalashtiriladi (to‘lanadi). Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag‘ o‘tkazmasdan I guruh xarajatlarini amalga oshirish taqiqlanadi.

Kapital qo‘yilmalarga ajratmalar (III guruh xarajatlari) joriy Budjet yili uchun tasdiqlangan Respublika investitsiya dasturiga muvofiq qurilishlarning aniq ro‘yxatlariga muvofiq ajratiladi.

Yagona g‘azna hisob raqamida, shuningdek hududiy g‘aznachilik hisob raqamida birinchi va ikkinchi guruhlar bo‘yicha to‘lanmagan xarajatlar summasidan ortiq mablag‘lar mavjud bo‘lganda ortiqcha summa miqdorida uchinchi va to‘rtinchi guruhlar bo‘yicha xarajat qilishga ruxsat etiladi.

Xarajatlarning I va II guruhlarini respublika va mahalliy budgetlardan xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash) smetalarga va Budjet xarajatlari ro‘yxatlariga, ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda, shuningdekoldingi hisobot davri uchun belgilangan baholash ko‘rsatkichlarining bajarilishiga muvofiq har oyda amalga oshiriladi.

## **2-rasm. Budgetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar smetalaridagi xarajatlarning tarkibi<sup>4</sup>**

### **Budgetdan mablag‘ oluvchilarni xarajatlar guruhlari bo‘yicha davlat budgetidan moliyalashtirish**



I.Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (bolali oilalarga nafaqalar, kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar)



II.Ish haqiga qo’shimchalar



III. Kapital qo‘yilmalar (Davlat investitsiya dasturlariga kiritilgan aniq ro‘yxatlarga muvofiq)



IV. Boshqa xarajatlar

Kapital qo‘yilmalarni va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish (to‘lash) Budgetga mablag‘lar tushishiga qarab har oyda amalga oshiriladi.

<sup>4</sup> B.I.Nurmuhamedova “Davlat byudjeti” O’quv qo’llanma. TOSHKENT “IQTISOD-MOLIYA” 2018. 196-197-bet.

## 1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida ta’lim xarajatlari salmog‘i (mlrd. so‘m)<sup>5</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>2020-y.</b>	<b>2021-y.</b>	<b>2022-y.</b>	<b>2023-y</b>	<b>2024-y</b>
1.	Davlat byudjetining jami xarajatlari	144142, 7	165879	214799, 6	257 734	313921
1.1	Ijtimoiy xarajatlar	74 231,8	86622	105199, 5	129891	151504
	<i>jami byudjet xarajatlari tarkibidagi ulushi, foizda</i>	51,5	52,2	49,0	50.4	48.2
1.1.1	Ta’lim xarajatlari	29961,1	34590	46713,8	58372	69076
	<i>jami ijtimoiy soha xarajatlari tarkibidagi ulushi, foizda</i>	40,4	39,9	44,4	45	46
	<i>jami byudjet xarajatlari tarkibidagi ulushi, foizda</i>	20,8	20,9	21,7	22,6	22,0

Ijtimoiy xarajatlar tarkibida eng katta ulushni esa ta’lim xarajatlari tashkil etadi (1-jadvalga qarang).

Jadval ma’lumotlaridan shuni guvohi bo‘lishimiz mumkinki, 2020-yilda ijtimoiy soha xarajatlari jami byudjet xarajatlarining 51,5 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 50,4 foizni tashkil etgan. 2024-yilga kelib esa ijtimoiy soha xarajatlari byudjet xarajatlarining 48,2 foizini tashkil etmoqda. Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan guvohi bo‘lishimiz mumkinki, davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag‘lar hajm jihatdan o‘sishiga qaramay, jami byudjet xarajatlari tarkibida ularning ulushi 2024-yilda 2020-yilga qaraganda 4 foizga kamaygan.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta’lim xarajatlari eng katta ulushga ega bo‘lib, 2020-yilda ijtimoiy soha xarajatlarining 51,5 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 48,2 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Davlat byudjeti jami xarajatlari tarkibidagi ulushi esa mos ravishda 2020-yilda 20,8 va 2023-yilda 22,6 foizni tashkil etgan holda, 2022-yilda 22,0 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Mamlakatimizda ta’lim tizimini

<sup>5</sup> Tegishli yillardagi “Fuqarolar uchun byudjet” nashrlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

byudjetdan moliyalashtirish hajmi 2024-yilda 2020-yilga qaraganda 2,5 barobarga ortishi rejalashtirilayotganligiga qaramay, uning jami byudjet xarajatlari tarkibidagi ulushi barqarorligicha qolmoqda Buning asosiy sabablaridan biri sifatida so‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik asosidagi hamda xususiy ta’lim muassasalarining ko‘payganligi e’tirof etish mumkin.


Shuningdek, so‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab o‘zining ham iqtisodiy, ham ijtimoiy zararini ko‘rsatayotgan pandemiya tufayli ko‘plab davlatlarning asosiy xarajatlari sog‘liqni saqlash sohasiga sarflanmoqda. Bunday holatni mamlakatimizda ham yuzaga kelishi hamda davlat byudjeti tarkibida davlat qarzlarini qaytarish bo‘yicha xarajatlarning ham ortishi davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta’lim xarajatlarining ulushini past darajada qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi 2024-yil uchun ta’lim xarajatlar pragnozini tahlil qiladigan bo’lsak Ta’lim xarajatlar asosan to’rtta asosiy kategoriya bo’lingan. Ta’lim sohasiga 69 076 mlrd so‘mni tashkil etgan bo’lib shundan:

Maktabgacha ta’lim xarajatlari 13 507 milliard so‘mni jami ta’lim xarajatlarining qariyb 20% tashkil etadi. Maktabgacha ta’limga ajratilayotgan xarajatlar yildan-yilga o’sib bormoqda bolalik ta’limiga katta sarmoya kiritilayotganini anglatadi. Bu esa albatta yoshlikdan boshlab mustahkam ta’lim poydevorini qurish uchun strategik maqsad hisoblanadi hamda bu kognitiv va ijtimoiy rivojlanish uchun juda muhimdir.

Ta’lim xarajatlarining ichida umumiy o’rta ta’lim 42 894 milliard so‘m so‘mni tashkil etgan. Umumiy ta’lim xarajatlarining eng ko‘pi ya’ni 62 foizini tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va oilaviy turlarining ortishi va ushbu sohada davlat-xususiy sheriklikning yanada rivojlanishi hisobiga bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish rejalashtirilgan



**3-rasm. Maktabgacha ta’lim xarajatlari tarkibi,  
2024 yil uchun prognoz, mlrd so‘m<sup>6</sup>**

<sup>6</sup> Tegishli yildagi “Fuqarolar uchun byudjet” nashrlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va oilaviy turlarining ortishi va ushbu sohada davlat-xususiy sheriklikning yanada rivojlanishi hisobiga bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish rejalashtirilgan

Ish haqi va ijtimoiy to‘lovlar ulushi o‘sishi mакtab ta’limini rivojlantirish doirasida, mакtab o‘qituvchilari va direktorlarini rag‘batlantirishni takomillashtirish choralarining amalga oshirilishi natijasidir. Jumladan, o‘qituvchilar ish haqi sinfdan tashqari ish uchun 15,0%, ishda ko‘rsatgan yuqori ko‘rsatkichlari va mакtab ta’lim jarayoni sifatini oshirishda qo‘shgan hissasi uchun 25,0% oshirildi. Barcha maktablarda Direktorlar jamg‘armasi tashkil etilgan. Unda o‘qituvchilarga rag‘batlantiruvchi to‘lovlar uchun ish haqi fondining 15,0% miqdorida qo‘shimcha byudjet mablag‘lari o‘tkaziladi.

Bugungi kunda davlat byudjetining sog‘liqni saqlash xarajatlari amaldagi byudjet tasnifining —Sog‘liqni saqlash bo‘limi bo‘yicha muassasalar va tadbirlarning quyidagi guruhlariga ko‘ra rejalashtiriladi va moliyalashtiriladi

## 2-jadval

### **Sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va ularni moliyalashtirish manbalari<sup>7</sup>**

7	070	000	<b>Sog‘liqni saqlash</b>
7	071	000	Tibbiyot buyumlari, asbob-uskunalari va apparatlari
7	072	000	Ambulatoriya xizmatlari
7	073	000	Kasalxonalar xizmatlari
7	074	000	Sog‘liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar
7	075	000	Sog‘liqni saqlash sohasidagi ilmiy-tadqiqot, tajribakonstrukturlik  Ishlari
7	076	000	Boshqa toifalarga kiritilmagan sog‘liqni saqlash  Masalalari

Manba: Xamdamov SH.K., Nurmuxamedova B.I., 2021

Har bir guruh bo‘yicha xarajatlar muassasalarning turlari va tadbirlarning yo‘nalishlari bo‘yicha aniqlashtiriladi.

<sup>7</sup> Xamdamov SH.K., Nurmuxamedova B.I., 2021

## 3-jadval

**Sog’liq saqlash tizimiga oid ma’lumotlar<sup>8</sup>**

Nomi	Miqdori
<b>Tibbiyot muassasalari</b>	4 070 ta
<b>Shtat birliklari</b>	486 123 ta
<b>Koyka o‘rinlari soni</b>	118,8 ningta
<b>Shifokorlar soni</b>	114,3 ming kishi
<b>Kichik tibbiyot xodimlari</b>	259,2 ming kishi

Fuqarolar uchun byudjet loyihasidagi ma’lumotlarga ko’ra 2024-yilda sog’lijni saqlash sohasiga xarajatlar 33 439.3 mldr so’m ajratilishi ko’zda tutilmoxda.

Byudjet siyosatini amalga oshirish uchun byudjet mablag’laridan samarali foydalanish zarurati tug’iladi. Ta’kidlash joizki, bunga byudjet xarajatlarining ustuvor yo’nalishlarini aniqlash orqali erishiladi. Ushbu jarayonda byudjet siyosatining shakllanishi byudjet xarajatlarining bozor munosabatlari asoslangan davlat xarajatlaridan xususiy sektorga o’tishi bilan amalga oshirish mumkin. Byudjet muassasalari xarajatlarini rejalashtirish, ularni smetalarini tuzish va moliyalashtirishni takomillashtirishni ko’rib o’tdik. Fikrimizcha ushbu mavzu keng va ko’pchilik uchun qiziqarli bo‘lib, kelajakda moliya organi xodimlari va ushbu tizmda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining fikr-mulohazalari asosida takomillashtirishga zarur hisoblanadi. Budget tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish, moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish va budget mablag’laridan foydalanish samaradorligini oshirishda bir qancha xulosalarni keltirish mumkin. Jumaladan:

- Raqamli platformalar va dasturlar orqali smeta tuzish jarayonini soddallashtirish va tezlashtirish.
- Smeta ijrosini kuzatish va nazorat qilish uchun doimiy monitoring tizimini joriy etish, hisobot berish mexanizmlarini kuchaytirish.
- Smeta tuzish va tasdiqlash jarayonlarining samaradorligini baholash uchun har chorakda tahlil va hisobotlar taqdim etilishi kerak.

---

<sup>8</sup> Tegishli yillardagi “Fuqarolar uchun byudjet” nashrlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Nurmuxamedova B.I., Srojiddinova Z.X., Sugirbayev B.B. O’zbekiston Respublikasida ta’lim xarajatlarini rejalashtirish. T: «INFO CAPITAL GRUP» -2013-y.
2. Raxmonov D.A. O’zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori darajasini olish uchun dissertatsiya. T., 2018- y
3. “Budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i, 15.12.2014 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 2634.
4. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(5), 1.
5. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.
6. Jumaniyazov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 30-37.
7. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. Science and Education, 4(1), 1033–1043. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
8. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O’RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1187-1191.
9. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партиципатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. Science and Education, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
10. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O’zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and Education, 4(2), 1509–1516. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
11. Jumaniyazov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.–Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229).
12. Jumaniyazov, I. T., & Abdurahmonov, Q. (2023). TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG‘ARMASINING BANKLAR FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 139-146.
13. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O’ZBEKİSTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 128-138.
14. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. Science and Education, 4 (5), 1518-1523.

15. Turayevich, J. I., & Akmal o'g'li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING O'RNI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 147-157.
16. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. Nonlinear Engineering, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
17. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China's Sovereign Wealth Funds. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 2(1), 1–8.
18. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 1(2), 355-372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>
19. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(11), 71–76.
20. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). TAX RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 25, 123–134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>
21. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 104–114.
22. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BANKING INNOVATIONS IN THE COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. Academia Repository, 5(03), 31–37. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/662>
23. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
24. Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46–54.

25. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117–124.
26. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023
27. To‘raevich, J. I., Nazarbaevich, A. A., Qilichbayevich, S. M., & Babaev, S. B. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46-54.
28. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund’s expenditure on GDP growth. Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.
29. Oppog‘ov, J. A., & Jumaniyazov, I. T. (2024). Moliya tizimida g‘aznachilik faoliyatini rivojlanish istiqbollari. Science and Education, 5(5), 504–512.
30. Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). METHODOLOGICAL BASIS FOR FORECASTING THE TAX POTENTIAL OF THE RUSSIAN FEDERATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 27, 100–107.
31. Abdullaev, A. N., Jumaniyazov, I. T. R., Sabirov, M. Q., & Babaev, S. B. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PERSONAL INCOME TAX FORECASTING. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 28, 233-243.
32. ESG PRINCIPLES IN INVESTMENT PROJECTS FINANCED BY SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1096-1102.
33. THE SOCIAL IMPORTANCE OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1028-1034.
34. TARGETED PLANNING OF BUDGET EXPENDITURES AND IMPACT ON SOCIAL POLICY. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1442-1444.
35. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING AHAMIYATI. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1418-1422.
36. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1428-1432.
37. Xamro o‘g‘li, Y. R., & Turayevich, J. I. (2024). ISHSIZLIK DARAJASI, UNING TURLARI VA UNI BARQARORLASHTIRISHNING YOLLARI. Ustozlar uchun, 1(4), 767-771.
38. Fuqarolar uchun byudjet-2023. <https://openbudget.uz/boards/humans>
39. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi sayti)
40. <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasining Statistika Davlat Qo‘mitasi web sayti)